



Zuhra Otaqo'ziyeva,

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
dotsenti, i.f.n.*

Shuhrat Boboxo'jayev,

*I. M. Gubkin nomidagi
Rossiya davlat neft va gaz universitetining
Toshkentdagi filiali dotsenti*

Elektron tijorat va undan foydalanishning afzallik jihatlari

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida elektron tijorat biznes rivojlanishining va biznes strategiyasining eng kerakli tarkibiy qismiga aylanib qoldi. Elektron tijorat biznes rivojlanishi uchun eng kuchli qurol – dastakka aylanib qoldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar (AKT)ning integratsiyasi tashkilotlar ichida, tashkilotlar orasida, tashkilotlar va insonlar orasidagi munosabatlarni keskin o'zgartirib yubordi. Xususan, AKTning iqtisodiyotda qo'llanilishi xarajatlarni qisqartirdi, samaradorlikni oshirdi, vaqt sarfini kamaytirdi, iste'molchilarning faolligini va umumiy sotuv hajmini oshirdi. Hozirgi iqtisodiyotni olimlar «Internet iqtisodiyoti» deb atamoqdalar. Keyingi davrda, ayniqsa, internetning keng tarqalishi elektron tijorat rivojlanishiga keskin yordam berdi.

Elektron tijorat (ET, e-commerce) termini juda keng tushuncha bo'lib, unga ko'plab ta'riflar berilgan. Keltirilgan ta'riflarni aksariyatida: «...internet orqali amalga oshirilgan har qanday savdo yoki tranzaksiya elektron tijorat deb ataladi». Lekin bu ta'rif ET tushunchasini to'liqligicha yoritmaydi. Yana bir ta'rifda ET – quyidagilarni foydalanib asoslangan, avtomatlashgan tijorat faoliyati hisoblanadi: telekommunikatsiya tarmoqlari, birinchi navbatda, Internet; axborot texnologiyalari, shu jumladan, veb-xizmatlari; maxsus huquqiy me'yorlar, standartlar, protokollar, tasniflash deb ta'riflangan. Bu ta'rif elektron tijoratning o'ta keng ta'rif bo'lib, shu bilan birga, biroz mavhum hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning savdo qonunchiliga bo'yicha tashkiloti (UNCITRAL) o'zining me'yoriy hujjatlarida elektron tijoratga qonuniy jihatdan ta'rif bergan. Bilamizki, UNCITRAL tashkiloti dunyoda savdoga oid har qanday qonun va terminlarni standartlashtiradi. ET terminini ham ushbu tashkilot o'z hujjatlarida standart holiga keltirgan. BMT Bosh Assambleyasi 1996-yil 16-dekabrda elektron savdo haqida №51/162 rezolyutsiyasini qabul qildi. Bu rezolyutsiyaga asosan elektron axborot uzatish va axborotni qayta ishlovchi vositalari orqali amalga oshiriladigan quyidagi jarayonlarga va biznes-operatsiyalariga elektron tijorat deb qaraladi, bular: buyurtmachilar va tovar yetkazib beruvchilar orasida aloqalar o'rnatish, tijoratga oid axborotlarni almashish, bozorning marketing tadqiqotlarini olib borish, savdo belgilarini reklama qilish, mahsulot va xizmatlarni sotilishini ta'minlash, fizik mahsulot va xizmatlarni savdosini tashkil qilish, shuningdek, elektron materiallar savdosini tashkil qilish, litsenziyalar berish, ishga yo'llash, faktoring va lizing operatsiyalari,


trejding, konsalting, injiniring, investitsiyalash, sug'urtalash, bank xizmatlari, korxonaning avtomatlashtirilgan resurs boshqaruvini ishlatish, korxonaning ma'muriy masalalarini hal qilish, buxgalterik hisobini olib borish, kadrlarni boshqarish va elektron usulda hal qilinadigan boshqa har qanday faoliyatlardir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham elektron tijoratga O'zbekiston Respublikasi «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasida quyidagicha ta'rif berilgan «Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati elektron tijoratdir». Yuqorida keltirilgan ta'rif eng aniq ta'rif hisoblanadi. Bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, elektron tijoratga shunday ta'rif berish mumkin: «Elektron tijorat – bu elektron kommunikatsiya va axborotni qayta ishlaydigan raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan har qanday iqtisodiy faoliyatdir». Internet tizimi orqali firmalar amalga oshirishi mumkin bo'lgan elektron biznesning asosiy modellari 1-rasmda keltirilgan.

Sanab o'tilgan elektron biznes modellarini amalga oshirishda Internet tizimi asosiy tarmoq bo'lib hisoblanadi, bundan tashqari, yana quyidagi tizimlardan foydalanish mumkin:

- lokal tarmoq LAN (Local Area Net);
- virtual lokal tarmoq VLAN (Virtual Local Area Net);
- korporativ tarmoq;
- korporativ tarmoqning xususiy bo'lgan tarmoqchasi VPN (Virtual Private Network);
- mintaqaviy tarmoq MAN (Metropolitan Area Network).

1-rasm. Elektron biznesning asosiy yo'nalishlari (Muallif tomonidan adabiyotlar asosida tayyorlangan).



Axborotlarni elektron almashish, elektron savdo, elektron to'lov tizimi va elektron tijorat ishtirokchilari o'zaro uzviy bog'liqligi ET samaradorligini belgilaydi. ETda to'lovlarni qabul qilish, samarali yetkazib berish, kafolat, xariddan keyingi ta'mirlash va qo'llab-quvvatlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda elektron tijoratning asosiy mahsulotlari oziq-ovqat, ishlab chiqarish va informatsion mahsulotlari hisoblanadi. ET tushunchasi faqatgina

biz biladigan elektron vositalar orqali savdo-sotiq faoliyatini bildirmaydi. Bu tushunchaga yana quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- tovar va xizmatlarga talabni yaratish;
- savdo amalga oshirilgandan so'ng mijozlarga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish;
- hamkorlar orasida o'zaro harakatlarni yengillashtirish.

ETda quyidagilar ishtirok etishi mumkin: davlat; xom-ashyo yetkazib beruvchilar; sotuvchilar; iste'molchilar; ishlab chiqaruvchilar.

ETda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi (Гаврилов Л. П. Основы электронной коммерции и бизнеса. — М.: Солон-Пресс, 2016. — 324 б.):

- bozorni o'rganish;
- hisob-kitob olib borish;
- buyurtmalarni bajarish;
- savdoni amalga oshirish;
- savdodan so'ng xizmatlar va qo'llab quvvatlash.

Elektron tijoratda quyidagi tarmoqlar ichida amalga oshiriladi: korporativ; internet; tijorat tarmoqlari. Yuqorida sanab o'tilgan ishtirokchilar, jarayonlar va tarmoqlar an'anaviy bozorda asosiy faoliyatlarini olib boradilar. Shu bilan birga, ular faoliyatlarini onlayn rejimda olib borishlari mumkin. Elektron tijorat bozori qatnashchilari quyidagilar: firmalar (business); iste'molchilar (consumers), faqat jismoniy shaxslar; davlat (government); ma'muriyat (administration), davlat tashkilotlari; investorlar (investors)dan iborat.

Elektron tijorat tizimining rivojlanishiga ta'sir etadigan omillar va undan foydalanishning afzalliklari. Texnologik omillar. Hozirgi kunda dunyoning deyarli 90 foizi elektron infrastruktura bilan ta'minlangan. Texnologik omilga quyidagilarni kiritish mumkin: internet-auditoriyasi hajmining o'sishi va internet auditoriyasi o'sish tempining ortishi; AKTning rivojlanishi; kompyuter texnologiyalarini rivojlantirishda intellektual salohiyatning oshishi. Umuman olganda, AKTning rivojlanishi elektron tijoratning rivojlanishiga salmoqli ta'sir qiladi. Mobil telefonlar va raqamli ma'lumotni tahrirlaydigan texnologiyalarning (PDA) ommaviylashuvi elektron tijoratning keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Kompyuter texnologiyalarini rivojlantirishda intellektual salohiyatning oshishi tarmoq texnologiyalarini rivojlantirishga olib keldi. Shuning bilan birga, intellektual potentsiali yuqori dasturchilar soni ortdi.

| Onlayn savdo va an'anaviy savdoning qiyosiy jihatlari | | | |
|---|--------------------------------------|---|--|
| No | Tovar guruhlari | An'anaviy tizimda sotuvning tannarxi (AQSH dollari) | Internetda sotuvning tannarxi (AQSH dollari) |
| 1. | Dasturlar bilan ta'minlash | 15,00 | 0,2–0,5 |
| 2. | Bank xizmatlari | 1,08 | 0,13 |
| 3. | Avia chiptalar | 8,0 | 1,0 |
| 4. | Billing | 2,22–3,32 | 0,65–1,1 |
| 5. | Sug'urta polislar | 400–700 | 200–350 |
| 6. | Oziq-ovqat mahsulotlari (% hisobida) | 25–50 | 5–10 |

Bozor omillari. Kompaniyalar faoliyatining on-layn rejimga o'tishi raqobatbardoshlik parametrlarini o'zgartirdi. Endilikda an'anaviy oflayn rejimdagi raqobat on-layn rejimga o'tgandan keyin raqobat parametrlari o'zgardi. An'anaviy oflayn rejimda aktivlari yuqori bo'lgan kompaniyalari har doim bozorni egallashda yuqori imkoniyatlarga ega bo'lganlar. Iqtisodiy omillar. Elektron tijorat asosiy foyda beradigan jihati u iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishda elektron tijoratning quyidagi jihatlari bilan yordam beradi: kompaniyalarning kommunikatsion xarajatlarini anchaga qisqartiradi; kam xarajatli infrastruktura hisoblanadi; xom-ashyo yetkazib beruvchilar bilan tezkor va ancha tejamon iqtisodiy bitimlar olib berish mumkin; global axborot almashishning kam xarajatli usuli hisoblanadi; ancha kam xarajatli reklama hisoblanadi; iste'molchilarga kam xarajat bilan xizmat ko'rsatish mumkin.

Yuqoridagi sabablardan ko'rish mumkinki, elektron tijorat xarajatlarni asosan kamaytiradi va xarajatlarning pasayishiga ta'sir qiladi. Elektron tijorat an'anaviy iqtisodiy faoliyatga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Bu farqni bir qancha parametrlarni taqqoslash orqali sezish mumkin. An'anaviy usulda iqtisodiy faoliyat olib borish on-layn rejimda iqtisodiy faoliyat olib borishdan ko'ra ancha qimmatligi seziladi (jadvalga qarang).

Elektron tijorat yordamida quyidagi masalalarni hal etish mumkin: bo'lg'usi mijozlar, tovar yetkazib beruvchilar va buyurtmachilar bilan veb tizimi orqali aloqa o'rnatish; savdo bitimlarini amalga oshirish uchun kerakli hujjatlarni elektron ko'rinishda ayirboshlash; tovar va xizmatlar sotilishi va yetkazib berilishini nazorat qilish; tovar reklamasi va xariddan keyingi qo'llab-quvvatlash; xarid uchun elektron to'lovni amalga oshirish va boshqalar. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanish, ularni yanada takomillashtirish, har bir masalaga alohida e'tibor bilan yondashish korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish va iqtisodiy samaraga erishish uchun muhim zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o'z faoliyatini elektron tijorat bilan uzviy ravishda bog'layotgan korxonalar quyidagi ustunlik va imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin:

- biznes infratuzilmasini saqlash xarajatlarini kamaytirish;
- reklama xarajatlarini kamaytirish natijasida tovar narxini pasaytirish;
- buyurtmani qabul qilish va amalga oshirish vaqtini tejash;
- barcha buyurtmalar ustidan nazoratni amalga oshirish;
- bo'lg'usi mijozlarning ko'payishi; o'z biznesini global miqyosda olib borish va boshqalar.